



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "2" aprel

QAROR 2 -son

Toshkent sh.

“Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini to'ldirish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi buyruq o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024- yil 15- maydagi “O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida” 282-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 14- dekabrda “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 1013-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida Nizom”ining statistika organiga yuklatilgan vazifalariga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 29- apreldagi “Faoliyatining asosiy ishlab chiqarish va iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi davlat ishtirokidagi korxonalar pasportlarining namunaviy shaklini to'ldirish tartibini tasdiqlash to'g'risida” 63- son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev